

INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDAGI SIFAT KOMPONENTLI IBORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK QIYOSIY TAHLILI

M. I. Xolmatova

M. B. Barotova

Jizzax politexnika instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola leksikologiyaning bir bo`limi frazeologiya sohasiga bag`ishlangan bo`lib, unda asosan ingliz va o`zbek tilshunosligidagi sifat komponentli frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilinib, ma`lum bir millatning mentaliteti, madaniyati, urf-odatlari va an`analarini o`zida aks ettirgan frazeologik birliklar haqida qimmatli ma`lumotlar beriladi. Iboralarni har ikkala til doirasida o`rganish, ularning semantik-grammatik va funksional stilistik xususiyatlarini ochib berish mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi. Xolbuki sifat komponentli iboralar mazkur tillar doirasida hali o`rganilmagan soha hisoblanadi. Ma`lumki, iboralar til egasi bo`lgan xalqning ma`naviyati, madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, tarixi bilan uzviy bog`liqdir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda maqolada 50 ga yaqin tarkibida sifat bo`lgan iboralar o`rganilib, ularda ikki millat madaniyatining tilda namoyon bo`lishi, o`z aro ta`siri va bog`likligi ko`rib chiqildi. Tilshunos olimlarning bu boradagi fikrlari o`rganilib, ularga umumiylar xulosalar berildi.

Kalit so`zlar: fraza, frazeologizm, lingvokulturologik, leksema, morfema, sintaktik bog`lanish, sifat komponentli iboralar, komparativ iboralar, lingvomadaniy.